

TURISTIK RESURLARDAN UNUMLI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Uralov Sh.A

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'lim
boshlig'i

Jabborova N

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda katta ahamiyat kasb etgan turizm sohasini har qanday iqtisodiy sharoitda rivojlantirishda yordam beradigan turistik resurslardan unumli foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizmni kengaytirishning o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, barqaror turizm, turizm infratuzilmasi, investitsiya, iqtisodiyotiy vaziyat, turistik resurslar.

Abstract: In this article, the innovative directions of development of the tourism sector, which has gained great importance today in any economic conditions, and the large-scale work being done in this regard are highlighted. Also, the role of expanding tourism in ensuring economic stability is highlighted.

Key words: tourism, sustainable tourism, tourism infrastructure, investment, economic situation, tourist resources.

Аннотация: В данной статье освещены инновационные направления развития туристической сферы, приобретшей сегодня большое значение в любых экономических условиях, и масштабная работа, проводимая в этом направлении. Также подчеркивается роль расширения туризма в обеспечении экономической стабильности.

Ключевые слова: туризм, устойчивый туризм, туристическая инфраструктура, инвестиции, экономическая ситуация, туристские ресурсы.

Ma'lumki, bugungi kunda har qaysi davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun turizm sohasining o'rni beqiyosdir. Turizmni rivojlantirish natijasida iqtisodiy jihatdan keng sharoitlarni yaratish mumkin. Shu bilan birgalikda, mamlakat tarqqiyoti va mamlakatlararo tashqi aloqalarni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun jahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra "2023-yilda barcha kiruvchi turistlar soni 1,460 mln.ga yetdi, undan kelgan daromad esa 1,481 mlrd. AQSH dollarni tashkil etganligi dunyo miqyosida turizm sohasi 334 mln yangi ish o'rinlari yaratgan"ligi turizm jahon iqtisodiyotiga juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil BMTning 72-assambleyasida ta'kidlagandek, "mustaqil o'lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e'tirof etilishi" dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarning yanada barqarorlashib borishiga, turizm borasida aytadigan bo'lsak, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishiga, yurtimizda mavjud yangidan – yangi turizm

imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi.

Turizmning hozirgi holatini baholashda, shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi xorijiy turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatiga ega emas. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan sharoitda turistlar oqimini va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko'paytirish imkoni bo'lmaydi. Infratuzilmaning holati turizmning rivojlanshini ta'minlash bilan birga, mamlakat xalqaro turistik nufuzi va imijini ham shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Turizmni rivojlantirish uchun mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bilan birga, har bir viloyatning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish muhimdir. Bularning barchasi yirik moliyaviy xarajatlarni, ya'ni investitsiyalarni amalga oshirishni taqazo qiladi.

Barqaror turizm – turizmni rivojlantirish va boshqarishning atrof-muhitga, madaniy qadriyatlarga, mahalliy aholi turmush tarzi manfaatlariga zid bo'lmagan shakllari, usullari va vositalari jamlanmasi hisoblanadi. Barqaror turizm konsepsiyasining ilmiy-nazariy tuzilmasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanishning 17ta maqsadlarini jamlagan metodologik yondashuvga tayanadi. Barqaror turizm konsepsiyasini qo'llashning tizimlashgan afzal jihatlarini aniqlashtirib olish, o'z o'rnida davlat va korporatsiyalar miqyosida turizm rivojlanishiga taaluqli dasturlarning ro'yobga chiqarilishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 16- avgustda «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qanday iqtisodiy sharoitda ham turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan vaziyatlar mavjud bo'lib, bu orqali faqatgina rivojlanish va iqtisodiy jihatlar qulay sharoit imkoniyatlarga ega bo'lishga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimova Madina Ismoilovna "INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLATIRISHDA TA'LIM TURIZMINING ROLI", Dekabr 2022
2. M.AMONBOYEV, S.XALILOV "Barqaror turizm rivojlanishi" o'quv qo'llanma, Toshkent – 2021
3. A.Kh.Komolov "TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA TASNIFI", 2023
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizmni-innovatsion-rivojlantirishda-investitsiyalarning-iqtisodiy-mazmuni-va-tasnifi>
5. <https://renessans-edu.uz>